**Emro Science and Education**
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

fanlari qatoriga Iqtisodiyot nazariyasi fanini xam majburiy o’qitish fani sifatida kiritilishini zarur deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi // Lex.uz>docs/-4545884
2. O’zbekiston Respublikasi sog’liqni saqlash tizimini 2019-2025 yillarga mo’ljallangan Kontseptsiyasi / OzR Prezidentining 2018 yil, 7 dekabr, №PQ-5590 qarori Ilovasi / (www.lex.uz), 7 декабр 2018 y.
3. Sh.Shodmonov, M.Raxmatov. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – T.: “Zamin nashr”, 2021. 34 b.
4. Ludwig von Mises. *Human Action: A Treatise on Economics.(*Людвиг-фон-Мизес.-Человеческая-деятельность.pdf (baguzin.ru)
5. Значение экономических знаний для медицинских работников. Источник: https://domopravda.ru/znacenie-ekonomiceskix-znanii-dlya-medicinskix-rabotnikov
6. Драчук П.Э. Роль экономических знаний в социализации будущих врачей. ФГБОУВО ЮУГМУМинздрава России, Челябинск, Россия e-mail: ehvd@yandex.ru
7. Пулатов О.Т., Курпаяниди К.И. Экономическая теория: ключевые аспекты в современном мире и их влияние на устойчивость рынков нового узбекистана // Ilm-fan taraqqiyotida mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Farg‘ona: FDU, 2024. 641- 645 b.
8. Prezident Yangi O‘zbekiston haqida gapiradi//Elektron resurs: URL: https://www.gazeta.uz/ru/2022/08/31/new uzbekistan/
9. Қутибоев Т. Ишчи кучи сифати инсон капиталининг асосий элементи сифатида// “Erkin bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sog’lom raqobat muhitini yaratish orqali hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari” mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman (2023 yil, 4 mart) ilmiy maqolalar va tezislar to’plami. – Andijon.: AndMI, 2023. – 694-696 b.

## TARIXIY ADOLATNI TIKLASH VA ICHKI MEHNAT MIGRATSIYASI XUDUDLARINI IJTIMOIY –IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI

**Ro‘zmatzoda Qodirqul Ruzmat o‘g‘li,**
*falsafa fanlari doktori,*

187

Published: 24.05.2025

**Cite this article:** Ro‘zmatzoda Qodirqul Ruzmat o‘g‘li (2025). Tarixiy adolatni tiklash va ichki mehnat migratsiyasi xududlarini ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirishning muhim omili. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/305

*© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

*FJSTI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasining prof. v.b.*
*Tel.: +988 91 666 17 06. qruzmatzoda@ gmail.uz*

***Annotatsiya.*** Maqola sobiq sovet tuzumi davrida O‘zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohoti, qishloqlardagi katta yer egalari, mulkdorlarni sinf sifatida tugatish, ularning yeri, ish qurollari, ish hayvonlari, uy-joyini musodara qilish orqali kollektiv xo‘jaliklar barpo etilganligi tarixan tarkib topgan mulkdorlarga nisbatan adolatsizlik va zulm bo‘lganligi, O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan so‘ng tarixiy haqiqatni tiklash - dehqonchilikka asoslangan fermer xo‘jaliklari yerlarini qishloq aholisi jon boshiga teng taqsimlash va ichki mehnat migratsiyasi xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim omili ekanligini asoslashga bag‘ishlangan.

***Tayanch so‘zlar:*** kollektivlashtirish, planli iqtisodiyot,o‘zbek modeli, yer-suv islohoti, ichki mehnat migratsiyasi, Farg‘ona vodiysi, tarixiy haqiqat, davlat manfaatlari.

O‘tgan asrning 30 –yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohoti tarixan tarkib topgan qishloq mulkdorlari, katta yer egalari va yakka dehqon xo‘jaliklarini zo‘ravonlik bilan tugatish, mulkdor dehqonlarni yerdan, mulkidan mahrum etish va ularni olis yurtlarga badarg‘a qilish hisobiga kolxozlar tashkil etilganligi davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlarda, O‘zbekiston kolxoz va sovxozlari tarixi jamoatchilik instituti tomonidan chop etilgan ko‘pjildli “O‘zbekiston kolxoz va sovxozlari tarixi. Ocherklar” (1) va taniqli olimlar, jumladan, akademik Erkin Yusupovning esdaliklari (2) da qayd etildi.

O‘tgan asrning 90- yillarida sovet davlatining planli iqtisodiyoti to‘la barbod bo‘lganidan so‘ng, akademik Erkin Yusupovning yozishicha, “1990 yil 19 oktyabrь kuni SR Oliy Soveti to‘rtinchi sessiyasida “Xalq xo‘jaligini barqarorlashtirish va bozor munosabatlariga o‘tishning asosiy yo‘nalishlari” mazuida doklad qildi. Bozor munosabatlariga o‘tish muqarrarligi, mulkiy munosabatlarni takomillashtirib, kishilarni ishlab chiqarishdagi mas'uliyati, manfaatdorligini oshirish, mahsulot ishlab chiqarish va sotish borasida sog‘lom raqobat bo‘lishi masalalarini ilgari surdi. Yerga egalikni takomillashtirish, dehqonlarga yerni uzoq muddatga, bolalariga meros qilib qoldirish huquqi bilan ijaraga berish masalasi ham o‘rtaga qo‘yildi” (2,373). Qo‘shni Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston respublikalarida kolxoz va sovxoz yerlari qishloq aholisi jon boshiga taqsimlanib, farzandlariga meros qilib qoldirish huquqi bilan ijaraga berildi. Yerdan foydalanish huquqidan mahrum etilgan o‘zbek qishloq yoshlari qo‘shni respublikalarda mardikorlik qila boshladilar.

1990 yil martida O‘zbekiston SSR Oliy Soveti sessiyasi O‘zbekistonda Prezidentlik institutini tashkil qilib, I. Karimovni O‘zbekiston Prezidenti etib sayladi. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimov KPSS Markaziy Komitetining kolxoz va sovxoz yerlarini qishloq aholisi jon boshiga teng taqsim qilish va bolalariga meros qilib qoldirish sharti bilan ijaraga berish to‘risidagi qaroriga zid ravishda qishloqlardagi tomorqa yerga muhtoj oilalarga 8-10 sotixdan yer ajratib berish to‘g‘risida qaror qabul qildi. I.Karimov Oliy Sovetning 12-chaqiriq yettinchi sessiyasida O‘zbekiston hukumati kommunistik mafkura va marksizm-leninizm ta'limotidan rasman voz kechganligini e'lon qildi. Lekin shunga qaramay, xuddi sovet tuzumi davrida bo‘lgani kabi davlat manfaatlarini xalq va jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yishga qaratilgan davlat totalitarizmini qaytadan tiklash “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat” shiorida o‘z ifodasini topdi.

O‘zbekistonning chorak asrlik tarixi davomida hayotga tatbiq etilgan “davlat-bosh islohotchi” g‘oyasi qishloq xo‘jaligi sohasidagi islohotlar kolxoz va sovxoz yerlari o‘rnida ko‘p hollarda dehqonchilikka aloqasi bo‘lmagan sobiq mansabdorlar, mahalliy hokimiyat mansabdorlari, puldorlarning dehqon fermer xo‘jaliklarini tashkil etish, ularga paxta, g‘alla, go‘sht va sut mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha majburiyatlar yuklash va amalda fermer xo‘jaliklarini mahalliy hukumat tomonidan ayovsiz talash davom etdi.

Yerdan foydalanish, milliy mustaqillik tufayli qishloqdagi zulm va zo‘ravonlikni tugatish, tarixiy adolatni qaror toptirish imkoniyatidan mahrum etilgan qishloq yoshlari ish izlab xorijiy mamlakatlarga ketishga majbur bo‘la boshladi. Buyuk rus mutafakkiri A.I. Gertsenga ko‘ra, “Insonning yerga bo‘lgan munosabati, bizning tushunishimizcha, bu azaliy tabiiy fakt, biz tug‘uliboq shuni bildik, keyin uloqtirdik, yetarlicha baholamadik, endi esa achchiq pushaymondik bilan G‘arb olamining fani va tajribasiga tayanib, uni rivojlantirmqchi bo‘lyapmiz. Bizdan bu vazifani yulqib oling: biz yana varvarlik choxiga tushamiz, bosqinchilarning quliga aylanamiz” (4,556)

O‘zbekiston - dehqonlar mamlakati. Mamlakat aholisining 67 foizi qishloqda mulksizlik, kambag‘allik sharoitida yashayapti.

Farg‘ona vodiysining yer maydoni O‘zbekiston xududining atigi 5 foizini tashkil etgani holda mamlakat aholisining 30 foizi vodiyda istiqomat qilyapti. Holbuki, vodiy dehqonlari Ikkinchi jahon urushi arafasida Katta Farg‘ona kanali va boshqa irrigatsiya inshootlarini hech bir texnikasiz qo‘l mehnati bilan barpo etgan, urushdan keyingi yillarda Markaziy Farg‘ona cho‘llari, Mirzacho‘lni gulistonga aylantirgan mirishkor, zahmatkash, sabr-toqatli xalq ekanligi ilmiy, badiiy asarlar, tarixiy xronika va arxiv hujjatlarida o‘z ifodasini topgan.

Ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan vodiy dehqonlarining boy tajribasi, bilimi va iste'dodidan oqilona foydalanish uchun respublikaning Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasining yerlarini o‘zlashtirish uchun ichki mehnat migratsiyasi imkoniyatlaridan foydalanish, qishloq yoshlarining xorijda emas, O‘zbekistonda farovon, erkin yashashi uchun imtiyoz va yengilliklar berish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq aholisining yerdan foydalanish imkoniyati va huquqlarining cheklanishi sharoitida “korruptsiya, mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik kabi illatlar davlat hokimiyatini obro‘sizlantirib, iqtisodiyotning o‘sishi va tadbirkorlik rivojiga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda”(3,46).

***Xulosa va takliflar:*** Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi xalq manfaatlari davlat manfaatlaridan ustivor ekanligini, ijtimoiy davlat xalq uchun, uning farovonligi va baxtli bo‘lishi uchun xizmat qilishni belgilagan ekan, O‘zbekiston qishloqlarida tarixiy haqiqatni tiklash, fermer dehqon xo‘jaliklari yerlarini qishloq aholisi jon boshiga taqsimlash, shubhasiz, xududdagi kambag‘allikni bartaraf etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ichki mehnat migratsiyasi mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik singari illatlarni tag-tomiri bilan qo‘porib tashlashga, xalqimiz ongi va tafakkurida yagona Vatan, xalqparvarlik hissini shakllantirishga, demografik muammolarni oqilona hal etishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1.O‘zbekiston kolxoz va sovxozlari tarixi jamoatchilik instituti. O‘zbekiston kolxoz va sovxozlari tarixi. Ocherklar. XI – kitob. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1982. – 544 b.

2.Erkin Yusupov. Zulmat ichida ziyo izlab. Xotiralar. Birinchi kitob. T., 2019. 503 b.

3.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1. – T., “O‘zbekiston”, 2017.

4.Герцен А.И. Сочинения. В двух томах. Т.2. Москва, Мысль, 1986.

## QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARINI XARID QILISHDA LOGISTIKA INFRATUZILMASINI TAKOMILASHTIRISH

**Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich**

*TDIU AF, “Mutaxassislik, ijtimoiy - gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi dotsenti,*

*e-mail: valijon60@bk.ru Tel:+998932785860*